

HAMSHIRALIK VA AKUSHERLIK ISHIDA BEMOR PARVARISHI.

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va
bola salomatligi ilmiy amaliy
tibbiyot markazi Surxondaryo filiali

Katta doya

Qurbonova Shoir

Hamshiralik va akusherlik ishida bemor parvarishi – bu tibbiyot amaliyotining muhim yoʻnalishi boʻlib, bemorning sogʻayishiga yordam beruvchi barcha parvarish, kuzatuv va yordam choralarini oʻz ichiga oladi. Ushbu faoliyat nafaqat kasallikni davolash, balki bemorning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan.

Hamshiralik ishida bemor parvarishining asosiy tamoyillari:

1. Gigiyena va qulay muhit: Bemor tinch, toza, yorugʻ va havosi yaxshi xonada boʻlishi kerak. Bu bemorning tezroq sogʻayishiga yordam beradi.
2. Ovqatlanish: Bemorning ovqati oqsil, uglevod, yogʻ, mineral tuzlar va vitaminlarga boy boʻlishi lozim. Kuniga 4 mahal ovqatlantirish, ovqatlarning xilma-xil boʻlishi va dasturxonni chiroyli bezash bemorning ishtahasini oshiradi.
3. Psixologik qoʻllab-quvvatlash: Hamshira bemorning ruhiy holatini tushunishi va uni qoʻllab-quvvatlashi zarur. Bu bemorning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi.
4. Axloqiy va huquqiy masʼuliyat: Hamshira bemorning shaxsiy axborotlarini sir saqlashi, uning rozilgisiz hech qanday muolajani bajarmasligi lozim.

Akusherlikda bemor parvarishining oʻziga xos xususiyatlari:

Akusherlik sohasida, ya'ni homiladorlik, tugʻruq va chaqaloqlik davrlarida hamshiralik parvarishi alohida ahamiyatga ega. Bu davrda homilador ayolning sogʻligʻi, psixologik holati va chaqaloqning rivojlanishi diqqat bilan kuzatiladi. Hamshira homilador ayolga toʻgʻri ovqatlanish, gigiyena, jismoniy faollik va ruhiy tayyorgarlik boʻyicha maslahatlar beradi. Tugʻruqdan soʻng esa ona va chaqaloqning holatini kuzatish, emizish boʻyicha koʻrsatmalar berish va zarur hollarda tibbiy yordam koʻrsatish hamshiraning vazifasiga kiradi.

Hamshiralik parvarishining bosqichlari:

1. Bemor holatini baholash: Bemorning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatini aniqlash.
2. Muammolarni aniqlash: Bemorning ehtiyojlari va muammolarini aniqlash.
3. Rejalashtirish: Bemor parvarishi boʻyicha aniq rejani tuzish.
4. Amalga oshirish: Rejalashtirilgan parvarish choralarini bajarish.
5. Baholash: Koʻrsatilgan parvarishning samaradorligini baholash va zarur hollarda rejani qayta koʻrib chiqish.

Hamshiralik va akusherlik ishida bemor parvarishi — bu bemorning sogʻligʻini tiklash va saqlashga qaratilgan murakkab, ammo muhim jarayon boʻlib, u yuqori malaka, e'tibor va mehr talab etadi.

Akusherlikda bemorlarda qon ketishi — bu tugʻruqdan oldin, tugʻruq paytida yoki undan keyin yuzaga keladigan xavfli holatlardan biri boʻlib, ona va bola hayotiga jiddiy tahdid soladi. Bu holat shoshilinch tashxis qoʻyish va tezkor tibbiy aralashuvni talab qiladi.

Qon ketish turlari va sabablari

1. Tugʻruqqacha (homiladorlik paytidagi) qon ketish:

Platsenta previa □ yo□ldosh bachadon pastki qismida joylashib, bachadon bo□yni ustini to□sib qo□yadi. Qon ketish odatda og□riqsiz bo□ladi.

Platsentaning erta ajralishi □ yo□ldosh homila tug□ilishidan oldin ajralib chiqadi. Og□riq bilan kechuvchi qon ketish bo□ladi, homila yurak urishi sustlashishi mumkin.

Bachadon yorilishi (ruptura) □ ayniqsa avvalgi kesarcha kesishdan so□ng homilani tabiiy yo□l bilan tug□dirishga urinishda yuz beradi.

Bachadon bo□ynining shikastlanishi yoki infektsiyalar.

2. Tug□ruq paytidagi qon ketish:

Platsentaning to□liq ajralmaganligi

Tug□ruq jarayonida bachadon yoki jinsiy yo□llarning shikastlanishi

Ko□p martalik tug□ruqlar natijasida bachadonning tonusi pasayishi

3. Tug□ruqdan keyingi qon ketish:

Atoni (bachadonning qisqarmasligi) □ eng keng tarqalgan sabab

Platsentadan qolgan qismlar □ ichkarida joylashgan joylardan qon ketishi

Bachadon ichidagi shikastlar yoki yirtiqlar

Koagulopatiyalar (qon ivishining buzilishi)

Akusherlikda qon ketishni aniqlash belgilari:

Vaginadan qon ketishi (och yoki to□q rangli)

Bachadonning yumshoq va bo□sh holatda bo□lishi

Puls tezlashuvi, qon bosimining tushishi

Holsizlik, bosh aylanishi, hushdan ketish

Homilaning yurak urishi buzilishi (agar homiladorlik davom etayotgan bo'lsa)

Parvarish va yordam ko'rsatish:

1. Zudlik bilan vrach yoki akusherni chaqirish
2. Bemorni yotqizish va tinchlantirish
3. Qonni to'xtatish choralari ko'rish:

Bachadonga qo'qil bilan yoki dori vositalari yordamida siqilishni ta'minlash (masalan, oksitotsin, metilergometrin) Ichki qon ketish shubhasida зудlik bilan operatsiyaga tayyorlash

4. Tomir orqali infuzion terapiya (fiziologik eritma, qon, plazma)
5. Qon yo'qotish hajmini nazorat qilish va gigiyenik prokladkalar og'irligini o'lchab yoki vizual baholash
6. Gemodinamik monitoring va yurak urishi, qon bosimi, siydik ajralishi

Profilaktika:

Homiladorlik davrida muntazam dispanser nazoratidan o'tish

Tug'ruqni faqat tibbiy muassasada o'tkazish

Oldingi kesarcha kesishdan keyin tug'ruq rejasini aniq belgilash

Anemiya (qon yetishmovchiligi)ni erta davolash

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Qodirova A. A. va b., Ginekologiya, T., 1997